


133. To'plamlar kesishmasi

Yondosh mavzu:
jamoaviy o'yinlar.

To'plam, to'plamlar elementlari,
elementlar miqdori.




1. Aziza qizil, Madina esa sariq rangli bo'rda yerga rasm chizdi. Aziza chizgan rasmning bir qismi Madina chizgan rasmning bir qismi bilan ustma-ust tushdi. Rasmlarning umumiy sohasida qanday rang hosil bo'ladi?



To'plamlarning umumiy qismi **to'plamlar kesishmasi** deb ataladi. Kesishma $\cap$ belgisi bilan belgilanadi.

Yozilishi: $A \cap B$.

O'qilishi: **A va B to'plamlar kesishmasi.**



A – yashil shakllar, B – to'g'ri to'rtburchaklar.

$A \cap B$ – yashil to'g'ri to'rtburchaklar.






2. Eyler-Venn diagrammasidan foydalanib, ushbu to'plamlarni tuzing: A – to'p bilan o'ynaladigan o'yinlar to'plami, B – jamoaviy o'yinlar to'plami. Bu to'plamlarni elementlar bilan to'ldiring: basketbol, golf, kyorling, yakkalik tennis, futbol, xokkey.



3. A – barcha ikki xonali yaxlit sonlar to'plamini va B – barcha 6 ga bo'linadigan ikki xonali sonlar to'plamini yozing. Ularning kesishmasini yozing.



4. A va B to'plamlarning diagrammalarini daftaringizga qayta chizing. Ularning kesishish sohasini bo'yang.



Agar ikkita to'plam kesishmasa va umumiy elementlarga ega bo'lmasa, ularning kesishmasi bo'sh to'plam bo'ladi.

Yozilishi: $A \cap B = \emptyset$.

O'qilishi: A va B to'plamlar kesishmasi bo'sh to'plam.



5. a) Ushbu ifodalarning qiymatlaridan A va B to'plamlarni tuzing. $A \cap B$ ni toping.

A to'plam

$$a = 75 + 58 + 242$$

$$b = (189 + 643) - 343$$

$$d = 918 - (335 + 318)$$

$$e = 75 \cdot 8 - 68 \cdot 8$$

$$f = 9 \cdot 25 \cdot 4 \cdot 2$$

B to'plam

$$g = 63 + 75 + 237$$

$$h = (554 + 182) - 254$$

$$i = 842 - (442 + 128)$$

$$j = 93 \cdot 4 - 79 \cdot 4$$

$$k = 5 \cdot 136 \cdot 2 \cdot 2$$

b) A va B to'plamlar turli sport turlari bo'yicha sizning yoshingizdagi bolalar uchun mo'ljallangan to'plarning grammlardagi massasini o'z ichiga oladi. Bu to'plamlarning elementlari qaysi sport turiga mos kelishini aniqlang.



YOVLEBLO

$$260 \leq \dots \leq 280$$



NGIBULO

$$1800 \leq \dots \leq 2720$$



NISTEN

$$56 \leq \dots \leq 60$$



KASBOLTEB

$$470 \leq \dots \leq 500$$



ULOTBF

$$375 \leq \dots \leq 385$$

133. To'plamlar kesishmasi



6. Basketbol musobaqasiga 2894 nafar tomoshabin yig'ildi. Bu futbol musobaqasiga yig'ilgan tomoshabindan 7856 nafar kam, voleybol musobaqasiga yig'ilgan tomoshabindan esa 1708 nafar ko'p. Futbol musobaqasiga voleybol musobaqasiga qaraganda qancha ko'p tomoshabin yig'ilgan?



7. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$$x \cdot 30 + 1750 = 7540$$

$$8100 : y - 23 = 37$$



8. Masalani jadval yordamida yeching.

v	t	s
84 km/h	5h	?



9. Ikkita uchburchakni shunday chizingki, ularning kesishmasi oltiburchak, beshburchak, to'rtburchak, uchburchak, kesma, nuqta bo'lsin.



10. Sport musobaqalarida ishtirok etish uchun quyi sinflarning har biridan 7 nafari, yuqori sinflarning har biridan esa 5 nafari o'quvchi taklif etildi. Agar maktabda 12 ta quyi sinf va ulardan 2 marta ko'p yuqori sinf bo'lsa, bu musobaqalarda necha nafar o'quvchi ishtirok etgan?



11. To'plamlarni Eyler-Venn diagrammasi yordamida chizing.
 $C = A \cap B$ to'plamni yozing. C to'plamning elementlari qanday umumiy xususiyatlarga ega?

$$A = \{12, 15, 23, 24, 28, 44, 48, 52, 58, 60, 62\};$$

$$B = \{1, 3, 4, 12, 15, 20, 24, 40, 48, 60, 75\}.$$